

Mini-futbol bo'yicha direktor kubogi g'olibi ma'lum bo'ldi

Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham aholining sog'lig'i, jismonan salomatligi, sog'lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko'rsatdi. Barchamiz bundan jiddiy xulosa qilgan holda zararli odatlardan voz kechib, ommaviy sport bilan doimiy shug'ullanish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish, bir so'z bilan aytganda, sog'lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o'zi taqozo etmoqda. Shu yechimni teran anglagan TIQXMMI Buxoro filiali direktori Shavkat Jaxonovich professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar o'rtasda har bir sport turi bo'yicha Direktor Kubogini o'tkazib kelmoqda.



Navbatdagi direktor kubogi mini-futbol bo'yicha bo'lib o'tdi. Turnirda 1-o'rinni Yer tuzish va yer kadastri kafedrası, 2-o'rinni Suv xo'jaligini va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash, 3-o'rinni esa Suv xo'jaligi va melioratsiya va Qishloq xo'jaligida elektr ta'minoti kafedralari egallashdi. G'olib va sovrindorlar diplom, medal va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

TIQXMMI Buxoro filiali matbuot xizmati